

## ADVOKATLIK FAOLIYATINING KAFOLATLARI TUSHUNCHASI, MAZMUN-MOHİYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jo'raqulova Shahnoza Ulug'bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Advokatlik faoliyati yo'nalishi magistranti

shahnoza.joraqulova@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20047711>

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda zamonaviy demokratik jamiyatda advokatlik instituti va uning odil sudlovni ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqotda "advokatlik faoliyati" va "advokatlik faoliyatining kafolatlari" tushunchalariga milliy hamda xorijiy olimlarning nazariy qarashlari asosida ta'rif berilgan. Maqolaning markaziy g'oyasi advokatlik kafolatlarini shaxsiy imtiyoz emas, balki malakali huquqiy yordam ko'rsatish va jamoat manfaatlarini himoya qilishning zaruriy vositasi sifatida asoslashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Advokatura, advokatlik faoliyati, huquqiy kafolatlar, mustaqillik, daxlsizlik, malakali huquqiy yordam, jamoat manfaati, odil sudlov, kasbiy sir, immunitet, huquqiy qalqon

Zamonaviy demokratik taraqqiyot bosqichida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimida advokatura instituti markaziy o'rinni egallaydi. Advokatlik faoliyati shunchaki xizmat ko'rsatish sohasi emas, balki odil sudlovni amalga oshirishning uzviy qismi va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim kafolatidir. Biroq, advokatning jamiyatdagi ushbu yuksak missiyasini to'laqonli ro'yobga chiqarish bevosita uning faoliyati uchun yaratilgan huquqiy himoya tizimiga bog'liq.

Yuridik adabiyotlarda advokat va advokatlik faoliyati tushunchasiga turli xil ta'riflar mavjud. Jumladan, A.F. Konining fikricha: "Advokat – o'z mijozining xizmatkori yoki odil sudlovni haqqoniy jazosidan qutilib qolishi uchun uning yordamchisi ham emas. U insonning do'sti, maslahatchisi, uning haqiqiy ishonchiga ko'ra yo u umuman aybsiz yoki aybdoru lekin, u ayblanayotgan darajada yoxud mazmunda emas" deya advokat tushunchasiga ta'rif bergan. L.A. Demidova va V.I. Sergeyev: "Advokat" tushunchasi ikki qismdan iborat: birinchi, uning huquqiy maqomi, ikkinchi, funksional, ya'ni advokatning faoliyat yo'nalishidagi o'rnidan iborat"<sup>1</sup> deb ta'kidlagan.

"Faoliyat" tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, terminologik jihatidan ushbu tushunchaning mazmunini ochib berishga harakat qilgan olimlarning fikricha, "faoliyat" insonning muayyan muhitdagi muayyan subyektlarga nisbatan maxsus munosabatlari yig'indisi bo'lib, uning mazmuni jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'zgarishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi bilan bog'liq bo'ladi. Faoliyat o'z ichiga maqsad, vosita, natija va tegishli jarayonlarni qamrab oladi<sup>2</sup>. Bundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, advokatlik faoliyati deganda tegishli advokat maqomiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish yuzasidan qonun bilan belgilangan maqsadlar doirasida o'z vazifalarini bajarish jarayonida tegishli qonuniy vakolatlarini amalga oshirishi tushuniladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Демидова Л.А.Ю., Сергеев В.И. Адвокатура в России: Учеб.- М.: ЗАО Юстицинформ, 2004.-С.110.

<sup>2</sup> Ожегова С.М. Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. - М., 1993. Б. 237

<sup>3</sup> Matkarimov Q.Q. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYI nashriyoti, 2011. – B.21

M.H.Rustambayev va U.A.Tuxtashevalarning ta’kidlashicha: “Advokatlik faoliyati” deyilganda, qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularga ko’rsatiladigan yuqori malakali yuridik yordam tushuniladi<sup>4</sup>. Advokatlik faoliyatining mazmuni va ahamiyati, ayniqsa, advokatlar tomonidan o’z vakolatlarini huquqni qo’llash amaliyotining turli sohalarida amalga oshirishida yaqqolroq namoyon bo’ladi<sup>5</sup>. Yuridik fanlari doktori A.G. Kucherenning ta’kidlashicha: “ Advokatlik faoliyatidan maqsad, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish va odil sudlovga kirishuvni ta’minlash, ya’ni huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-siyosiy faoliyatini amalga oshirish ya’ni huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-siyosiy faoliyatini amalga oshirish, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilish”dir<sup>6</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni umulashtirgan holda, aytish mumkinki, advokatlik faoliyati bu faqat tegishli tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomidangina amalga oshirilishi mumkin bo’lgan faoliyatdir va ushbu faoliyatning maqsadi A.G. Kucheren ta’kidlaganidek jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarni himoya qilish, huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri sifatida odil sudlovni amalga oshirishga ko’maklashishdan iboratdir.

Advokatlik faoliyatining kafolatlari tushunchasiga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, umumiy ma’noda **kafolat** - bu biror narsaning amalga oshirishini, bajarilishini yoki daxlsizligini ta’minlovchi choralar, vositalar va sharoitlar majmuidir. L.D. Voevodining fikricha, “kafolat” tushunchasi huquq va erkinliklarni amalga oshirish va himoya qilishga, ularning to’liq yoki tegishli tarzda amalga oshirilmasligi sabablarini va to’siqlarini bartaraf etishga, huquqlarni buzilishlardan himoya qilishga qaratilgan barcha obyektiv va subyektiv omillarning yig’indisini qamrab oladi<sup>7</sup> Bir guruh olimlarning fikriga ko’ra “faoliyat” bu insonning muayyan muhitdagi muayyan subyektlarga nisbatan maxsus munosabatlari yig’indisi bo’lib, uning mazmuni jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda o’zgarishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi bilan bog’liq bo’ladi. Faoliyat o’z ichiga maqsad, vosita, natija va tegishli jarayonlarni qamrab oladi<sup>8</sup>

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha<sup>9</sup>, advokatlik faoliyatining kafolatlari - bu faqat advokatning huquqiy maqomini belgilab beruvchi me’yorlar yig’indisi emas, balki sud-huquq tizimining barqaror va izchil faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim huquqiy mexanizmdir. Huquqiy doktrinada bu tushuncha murakkab va ko’p qirrali huquqiy kategoriya sifatida baholanadi. Ushbu kafolatlar, eng avvalo, advokatga o’z kasbiy faoliyatini mustaqil va erkin tarzda amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari yoki boshqa shaxslarning aralashuvisiz

<sup>4</sup> O’zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati : darslik / M H Rustambayev, U.A Tuxtasheva; O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent davlat yuridik instituti. — Toshkent: O’zbekiston faylasuflari miilij jamiyati nashriyoti, 2012 — 384 bet

<sup>5</sup> Минасян А. В. Понятие адвокатской деятельности и отграничение ее от смежных видов юридической деятельности // Ученые Труды Российской Академии адвокатуры и нотариата. № 2 (13) 2009. Б 22.

<sup>6</sup> Кучерен А.Г. Адвокатура : Учеб.-М.: Юристъ, 2004.-С.14.

<sup>7</sup> Воеводин Л. Д. Юридический статус личности в России / Л. Д. Воеводин // Учебное пособие. – М.: Издательство МГУ, Издательская группа ИНФРА – М – НОРМА, 1997. – 304 с.

<sup>8</sup> Турдалиев, Д. . (2024). Конституционные основы гарантий адвокатской деятельности. Общество и инновации, 5(1/5), 114–120

<sup>9</sup> Mualliflar jamoasi. Advokatura. Darslik. – T.: TDYU, 2019. 195 b

mijoz manfaatlarini qonuniy asosda himoya qilish imkonini beradigan normalar tizimi sifatida qaraladi<sup>10</sup>.

Advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari masalasiga keladigan bo'lsak, A.D. Boykov yozishicha: "Advokatning o'ziga xosligi shundaki, u o'z himoya taktikasi va pozitsiyasini tanlashda mutlaqo mustaqil. Hatto himoya ostidagi shaxsi aybiga iqrор bo'lsa-da, agar advokat bu yerda o'zini ayblash alomatlarini ko'rsa, u himoya qilishda davom etishi mumkin<sup>11</sup>". Ya'ni hech kim, hech qaysi davlat organi hatto, sud ham advokatga "mana bu dalilni keltir" yoki "bunday gapir" deb buyruq bera olmaydi. U o'z fikrini erkin bidirish huquqiga, himoyani erkin olib borish xususiyatiga ega.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, advokatlik kafolatlari mohiyatiga ko'ra jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi "huquqiy qalqon" vazifasini o'taydi. Advokat faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuvning cheklanishi nafaqat ushbu kasb vakillarining xavfsizligini, balki butun sud-huquq tizimining xolisligi va qonuniyligini kafolatlovchi asosiy mezondir.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni.
4. Rustambayev M.H., Tuxtasheva U.A. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati: darslik / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYI. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. – 384 b.
5. Mualliflar jamoasi. Advokatura: Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019. – 195 b.
6. Axmedov G'A. O'zbekiston Respublikasida advokatura: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuU, 2021. – 112 b.
7. Matkarimov Q.Q. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYI nashriyoti, 2011. – 21 b.
8. Демидова Л.А., Сергеев В.И. Адвокатура в России: Учебник. – М.: ЗАО Юстицинформ, 2004. – С. 110.
9. Кучерена А.Г. Адвокатура: Учебник. – М.: Юристъ, 2004. – С. 14.
10. Бойков А.Д. Адвокатура России: учебное пособие. — М.: Юрлитинформ, 2010.
11. Барцевский М.Ю. Адвокатская этика. — М.: Проспект, 2022. – 134 с.
12. Sattarova Z.N. Advokatning protsessual mustaqilligi muammolari // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2023. – № 3. – В. 24-28.
13. Bunyodov Sh.Z. Advokatlik faoliyati kafolatlarining nazariy-huquqiy asoslari. – Zenodo, 2024. – DOI: 10.5281/zenodo.15754492.
14. Турдалиев Д. Конституционные основы гарантий адвокатской деятельности // Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – № 1/С. – С. 114–120.
15. Минасян А.В. Понятие адвокатской деятельности и отграничение ее от смежных видов юридической деятельности // Ученые Труды Российской Академии адвокатуры и нотариата. – 2009. – № 2 (13). – С. 22.

<sup>10</sup> Bunyodov Sh.Z. Advokatlik faoliyati kafolatlarining nazariy-huquqiy asoslari. – Zenodo, 2024. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15754492>

<sup>11</sup> Бойков А.Д. Адвокатура России: учебное пособие. — М.: Юрлитинформ, 2010.